

**BADIIY MATNDA QO'LLANGAN KASB-HUNARGA OID SO'ZLAR
LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIK SIFATIDA**

**Qurbonov Davronbek– Navoiy davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti
fakulteti talabasi. Ilmiy rahbar– f.f.n. dots. Zaripov B.**

***Annotation:** The language of a work of art is inextricably linked with fiction, which has centuries of experience in depicting life. For this language of a work of art is one of the few stratified words related to professional lexicon. and such words require analysis in terms of usage and meaning.*

***Key words:** language of art, professional vocabulary, lingvopoetic means.*

Badiiy nutq bilan badiiy asar tili bir hodisa emas: badiiy nutq adabiy nutqning bir ko'rinishi, u albatta adabiy til me'yorlariga bo'ysundiriladi; badiiy asar tilida esa adabiy til me'yorlaridan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi. Unda badiiy nutq bilan parallel ravishda, asardagi maqsad va vazifalardan kelib chiqib, kasb-hunar yoki ma'lum bir sohaga oid atamalar qo'llanadi.

Turli kasb-hunarlar bizning kundalik yumushimizni tashkil qiladi. Ularning har birining o'ziga xos farqlovchi jihatlari bor. Ana shu turli kasb-hunar egalari nutqida qo'llanuvchi leksemalar kasb-hunar terminlari deyiladi. Kasb-hunar atamalari ham dialektlardek nisbiy tushunchadir. Kasb-hunar atamalari shu hunar egasi qaysi sheva vakili bo'lsa, shu sheva leksikasi tarkibiga kirishi ham mumkin. Masalan, Shahrisabz shevasiga mansub hunarmand ishlatadigan atama Buxoro shevasida bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun kasb-hunar leksikasi ikki hissa chegaralangan leksikani tashkil etadi va bunday so'zlar badiiy asarlarda qo'llanganda lingvokulturologik ahamiyat kasb etadi.

Oybekning "Bolalik" qissasida kasb –hunarga oid turli xil so'zlar qo'llangan. Asarni o'qish jarayonida bunday so'zlar haqida o'quvchilarga bunday so'zlar haqida izoh yoki tushuncha berib o'tish zarur. Quyida etikdo'zlikka oid ayrim so'zlar va ularning ma'no xususiyatlari haqida fikr yuritamiz:

Tanish eshikka hammadn ilgari yuguraman-da, to'ppa- to'g'ri do'konxonaga kiraman. Kichkina, siniq ko'zli deraza tagida beti yeyilib silliqlangan qalin to'nka -- kunda yonida charm kesib o'tirgan bobom menga qaradi. (11-bet).

To'nka bosh ma'noda: “kesilgan yoki sinib tushgan daraxtning yerdan chiqib turgan uchi” demakdir. Uning ma'nodoshi **kunda** so'zi ham aynan shu ma'noni ifodalaydi. **Kunda** so'zining 2-ma'nosi esa “ustida biror narsani chopish, qirqish va sh.k.lar uchun qilingan maxsus g'o'la” ni ifodalaydi *Qassob kundasi* kabi.(O'TIL.2. 430). *To'nka* so'zi bu ma'noda kam qo'llanadi. Yuqoridagi misolda *to'nka* aynan“ustida biror narsani chopish, qirqish uchun qilingan maxsus g'o'la ” ma'nosida etikdo'zlik uchu maxsus ashyo, moslamani ifodalagan.

Men ivirsiq do'konxonada titina boshlayman: shonlar, qoliplarni taraqlatib qo'yaman.(12-bet). Shon-“ mahsi yoki etik qo'njiga qo'yiladigan tayoq-qolip”. (O'TIL. 4. 594-bet). **Qolip**-“tikiladigan poyabzalning ichiga qo'yiladigan va uning katta-kichikligini, shaklini belgilaydigan moslama”.(O'TIL.5.325)

– *Bor suv olib kel, shirach qoqamiz, – deydi bobom.(25-bet). Shirach* aynan **sirach**. Sirach degan o'simlikdan tayyorlanadigan kukun. Bu kukundan etikdo'zlikda va kosibchilikda ishlatiladigan yelim tayyorlanadi. (O'TIL.3. 520.)

Tayyor bo'lgan bachkana mahsilarni taxlayman, ba'zilarini oyoqlarimga o'lchab ko'raman. ...Kichkina o'tmas gazan bilan charmlarni ho'llab, kunda ustiga qo'yib, kuva bilan urib tekislashni juda yaxshi ko'raman.(12) Bachkana forscha so'z bo'lib “bolalarga xos” ma'nosini ifodalaydi. (O'TIL. 1.181.)Uning bosh “bolalar uchun mo'ljallangan oyoq kiyim ” ma'nosi bugungi kunda eskirgan hisoblanadi. Yuqoridagi misolda aynan ana shu ma'no ya'ni **bachkana** (“bolalar uchun mo'ljallangan”) **mahsilar** nazarda tutilgan.

Gazan- *kosiblarning charm qirqadigan maxsus pichog'i.*”(O'TIL. 1. 475)

Kuva –“kosibchilikda charmni urib tekislash , cho'zish uchun ishlatiladigan og'ir temir asbob.” (O'TIL.2.419)*

Yuqoridagi matn parchasida oyoq-kiyim tikiladigan do'konxonadagi bir epizod yoritilganligi tufayli, unda etikdo'zlikka oid kasb-hunar so'zlari ishlatilgan.

Kasb hunarga oid atamalar she'riyatda ham uchraydi. Shoir Iqbol Mirzoning "Sodiq chegachi" she'rida ham bunday so'zlar qo'llangan:

Sodiqning cho`pdek ozgan,

Aqldan ozgan ayoli

Suv qizi kabi sochlari yozg`in

O`tirarmish Bachqirariq qirg`og`ida

*Qo`llarida Sodiq **chegachining***

Kamonchasi, parmabigizi,

Sirachi... (3. 131- bet, „Sodiq chegachi“).

Chegachi, kamoncha, parmabigiz, sirach – kasb- hunarga oid so'zlardir.

Chegachi- „*singan chinni, sopol idishlarni chegalovchi, chega qiluvchi*“ (O`TIL 2. 362 – bet). ***Kamoncha-*** „*chegachilik, qadoqchilik, duradgorlik kabi kasblarda parmani aylantirish uchun xizmat qiladigan kamalak asbob*“ (O`TIL. 1. 365- bet).

Parma- „*aylanma harakat qilib, tig'i bilan narsalarni teshadigan asbob*“ (O`TIL. 1.575 – bet). ***Bigiz-*** „*poyabzaldo`zning yog`och sopli, nina uchli metall asbobi*“ (O`TIL.1.110- bet). ***Sirach-*** „*qog`oz, charm va sh. k. ni bir- biriga yopishtirish uchun shu kukundan suvga qorib tayyorlangan yopishqoq bo`tqa*“ (O`TIL.2.55- bet).

Kasb-hunarga oid so'zlar chegaralangan qatlam so'zlari hisoblanadi. Kasb-hunar leksikasidan badiiy asar tilida ma`lum uslubiy maqsadlarda foydalaniladi. Ba'zida bir epizod yoritilganligi tufayli foydalanilsa, ba'zan uslubiy maqsad bilan qo'llanishi mumkin. Bunday so'zlarning ma'no xususiyatlari esa lingvokulturologik birlik sifatida yuqoridagi kabi izohlarni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tursunov S. va boshqalar. Hozirgi o`zbek adabiy tili. T. 1992, 118-bet.
2. Oybek. "Bolalik". "Sharq" n. T.2002.
3. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. T.:2007. 131-b.

4. *O'TIL.–O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik.1-,2-,3-,4-,5-jildlari.T.:2006-2008. [Qavs ichida sahifa va jild ko'rsatilgan]

